


SHAXSNING RIVOJLANISHI VA TA'LIM - TARBIYASI



Ergasheva Zulayxo Sodiq qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat

2 - kurs talabasi

Eshmuratova Dildora

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi.

Anotatsiya: Har bir inson tug'ilibdiki bu shaxs hisoblanadi. Yosh bolaga bir yoshdanoq tarbiya berish boshlanadi. Hamda yetti shoshida uning yoniga ta'lim qo'shiladi. Bu ikkalasi esa bola hayoti davomida birga olib boriladi. Bilmaganlari o'rgatiladi, keyinchalik esa kasb hunarga yo'naltiriladi va tushuntiriladi. Shu yo'sinda shaxs qaysidir ma'noda rivojlanib jamiyatga qushilib, o'zi mustaqil rivojlnana boshlaydi.

Kalit so'zlar: Shaxs, rivojlanish, ta'lim, tarbiya, jamiyat, tabiat, irsiyat,

KIRISH

Shaxs tushunchasi insonga tegishli so'z hisoblanib, hatti harakatlari bilan o'zgalardan ajralib turuvchi, ma'lum bir xulqqa ega jamiyat azosi hisoblanadi. Odam avvalo shaxs bulishi uchun spixik jihatdan rivojlanishi, o'z his tuyg'ularini his eta olishi va tariflay olishi lozim. Shaxs rivojlanishida oddiylikdan murakkablikka qo'yilgan jarayon hisoblanadi. Shaxs rivojlanishida tabiat, atrofidagi kishilar ham muhim rol o'ynaydi. Shu tarda bir qancha bosqichlardan o'tgani sari shaxs darajasi yanada oshib boraveradi. Shaxs qaysidir ma'noda biologik omil hisoblanadi, sababi har bir hayoti davomida tabiat, atrof muhit muhim hisoblanadi. Shu yusinda shaxs rivojlanishi bir tekisda kechavermaydi, inson yashash muhitiga salbiy ta'sir ettiruvchi omillar ham mavjud. Chunki shaxs faoliyati davomida ilsm olish, tarbiyalanish bilan birga turli xil kasalliklar ham ta'sir etadi. Inson umri davomida o'zgarib borishi tufayli, hayoti davomida unga berilayotgan tarbiya muhim rol o'ynaydi. Sababi rivojlanish ta'lim va tarbiya ostida kechadi. Shaxs rivojlangani sari o'z ma'sulyatlarini tushunib unga ongli ravishda javob qaytara boshlaydi. Tarbiyani ko'ngildagidek olib borish uchun esa bola ruhiyatiga ijobiy ta'sir o'tkazish, unga murakkab narsalarni osonlashtirib tushuntirish lozim.

ASOSIY QISM

Shax - bu jamiatning bir bo'lagi hisoblanadi. Shaxsnii jamiyatga qay darajada mos tarbiyalash esa avvalo oilaga va tarbiyasiga ma'sul xodimga bog'liq hisoblanadi. Shaxs rivojlangani sari yoshi va jismoniy qobilyatlari orta boradi. Shaxs rivojlanishida asosiy masala, birinchi o'rinda tarbiyani uzviyligiga va to'g'ri tanlanganligiga bog'liq. Bola tug'ilibdiki hayoti ma'lum harakat faoliyatları bilan bog'lanadi. Bu faoliyatlar to'g'ri yo'naltirilsagina bolada ko'zlangan natijaga erishiladi. Bola uyg'aygan sari ongi

rivojlanib, ruhiyati shakllanib boraveradi. Shaxs rivojlanishi bu inson ijtimoiy mavjudod degan qarashlarga asoslanadi, degan fikrlar ham mavjud. Shu yo'sinda inson bialogik mavjudod ham hisoblanadi.

Shaxsning rivojlanishida tabiat qonuniyatları ham muhim sanaladi. Shaxs o'zligini anglagungacha bo'lgan vaqtida unga berilgan tarbiya muhim hisoblanadi. Chunki bu vaqt yunaltirish vaqtı sanaladi. Shaxsda yo'naltirish jarayoni to'g'ri kechsagina natija ijobiy hisoblanadi. Shaxs rivojlangani sari unda kechayotgan o'zgarish oqibati kuchaya veradi, bu o'zgarishlar hoh ijobiy bo'lsin hoh salbiy. Vaholanki shaxs, o'z qarashlariga ega, har bir muammo va yutuqlarini taxlil qila oladigan bir butun jamiat a'zosi hisoblanadi. Shaxs rivojlanishida yana bir muhim omil sifatida irsiyatni keltirish mumkin. Sababi ota onadan o'tgan irsiy belgilar yosh uyg'aygan sari bolada namoyon buladi va bu hayot faoliyati bilan uzviy bog'lanadi.

Tarbiya haqida gap borar ekan, bu inson hayot faoliyati davomida olib boriladigan ijobiy yunalish hisoblanadi. Bola tug'ilibdiki bir, ikki yoshida tarbiyasini ma'lum darajada shakllantiriladi, yetti sakkiz yoshidan esa tarbiya yoniga ta'lim ham qushiladi. Va bu ikki ibora bir biri bilan uzviy ravishda bog'lanadi. Tarbiyaga qo'yilgan talablar me'yor jihatdan to'g'ri tanlangan bo'lishi va bu bolaga to'g'ri tadbiq etilishi lozim. Tarbiya insonning insoniyligini ta'minlaydi va ruhan qashshoqlikdan ozod etadi. Tarbiya insonni jamiat talablariga moslashtiradi. Shaxs rivojlanishida tarbiya o'ziga xos o'rinni egallaydi. Shu sababli bolaga tarbiyani to'g'ri tanlay olish va turli kurinishlar bilan bolaga yetkaza olish muhim hisoblanadi. Shaxs rivojlangani sari unda turli qobilyatlar ham rivojlanib, turli ko'rinishlarda shakllanib boraveradi. Qobilyat avvalo insonning eng guzal istedodi hisoblanadi, shaxsda namoyon bo'lgan qobilyatlarni yanada boyitish uchun ham ta'lim va tarbiyaning o'rni beqiyos hisoblanadi. Tarbiya turli jihatlari bilan insonda shakllanadi, beqiyosligi bilan insonlarni bir biridan farqini namoyon qiladi.

Ta'lim va tarbiya bir ma'noga ega degan tushuncha qaysidir ma'noda xato hisoblanadi. Bu ikkala so'z bir ma' no emas balki bir biri bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Tarbiya maromiga yetkazilib berilgan ammo ta'lum tushuntirilmagan shaxsni yetuk shaxs deya atolmaymz. Shu sababli bu ikki tushunchani birgalikda olib borilsagina ko'zlagan maqsadga erisha olish mumkin. Shu sababli ham kishini shaxa darajasiga ketkazish uchun bir qancha qiyinchiliklardan o'tish lozim. Shu yo'sinda olib borilayotgan ta'lim jarayoni muvofaqiyatli kechadi. Ta'limni ham bola yoshiga moslab o'rgatish va turli metodlar yordamida tushuntirilsa ancha oson va tushunarliroq kechadi, bu esa pedagogdan mahorat talab qiladi. Shaxsni kamol toptirish va uni o'zi sevgan kasbga yo'naltirish ham pedagog zimmasida hisoblanibgina qolmasdan, ota-onalar bilan ham birgalikda olib borilishi zarur.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, bola uyg'aygan sari uning imkoniyatlari ham orta boshlaydi. Har tomonlama yetuk shaxs nomiga loyiq bulish uchun ham aqlan ham ruhan sog'lom va rivojlangan bulishi zarur. Shu sababli shaxs rivojlanish jarayonida ta'lim ta'rbiya muhim rol o'yinaydi. Shaxsni tarbiyalash mukammal ish hisoblanadi va bunga niddiy qarash lozim. Yetuklik, jamiat, rivojlanish bu so'zlar zamirida bir qancha ma'nolar yotadi, bu so'zlar esa inson hayot faoilati ustuni hisoblanadi. To'g'ri tanlangan tarbiya, metod, ta'lim, shaxsni rivojlantiradi, jamiatga kerakli bulgan kadr qilib tayyorlaydi bu esa bir qancha imkoniyatlar kaliti hisoblanadi. Shaxs ongli raviahda voqealarga baho bera olishi, fikr yurita olishi, o'z dunyo qarashiga ega bulishi va xatti - harakatlari bilan o'zgalardan ajralib turishi lozim. Bu kabu fazilatlarni namoyon qilish uchun esa irsiyat, ta'lim tarbiya va atrof muhit muhim o'rinnegallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jabborova Gulnoza: Pedagogik odob - axloq va talaba xulq madaniyati shakllanishining asosiy omillari.
2. Sattorov V. N: umumiy pegagogika fanini o'qitishda inovatsialar.
3. Tursunov I, Nishonaliev U: Pedagogika kursi.
4. Husanboyev J: Pedagogika.